

N. NAZAROV

TURK RUNOLOGIYASI VA ETNOMADANIY JARAYONLAR



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

NASRIDDIN NAZAROV

**TURK RUNOLOGIYASI
VA ETNOMADANIY JARAYONLAR**

«Mhamroh media»
TOSHKENT – 2025

UO'K 821.312.161;903.2

KBK 84(5);63.5

N-85

Nazarov, Nasriddin

Turk runologiyasining tarixiy aspektlari va etnomadaniy jarayonlar / Monografiya. – T.: «Mhamroh media», 2025. – 228 b.

Ushbu monografiyada turk runologiyasining namunalari bo'lgan O'rxun-Yenisey yodgorliklari haqidagi nazariy fikrlar ilgari surilib, ularning etnomadaniy jarayonlardagi o'rni tadqiq etiladi. Qadriyatlarimizning tarkibiy qismi sifatida VI-VIII asrlarda bitilgan turk runik manbalaridagi hikmatlar, ularning tadrijiy jarayonlardagi etnomadaniy mohiyati, bitiklarning tarixiy tafakkurni yuksaltirishdagi o'rni haqidagi fikrlar ilgari suriladi. Tarixiy bitiklar bugungi kunda ham yoshlarni o'tmish qadriyatlariga ijobiy munosabat ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda, yoshlar tafakkurida el va yurt taqdiri uchun mas'ullik hissini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etish jihatlari tadqiq etiladi. Ayniqsa, turfa tahdidlarning mavjudligi sharoitida birlik va hamjihatlikni ta'minlash masalalariga e'tibor qaratilgan hikmatlar jamiyatda yakdillik va barqarorlikni ta'minlashda zaruriy ahamiyatga ega.

Mas'ul muharrir:

Ahmadali Asqarov – O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Adham Ashirov – tarix fanlari doktori, professor

Gulchehra Raxmonova – falsafa doktori (PhD), dotsent

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (9-son bayonnoma, 2024 yil 24 dekabr)

ISBN 978-9943-4816-8-4

© «Mhamroh media» nashriyoti, 2025

KIRISH

Dunyo miqyosida tarix va tarixiy qadriyatlarga munosabat ijobiy mohiyat kasb etib, insoniyat o'z ajdodlari, ularning ma'naviy taraqqiyot bosqichlari hamda madaniyatining shakllanib, tadrijiy takomiliga qiziqishlari ortayotganligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, tarixiy voqealardan saboq chiqarib, kelajak taraqqiyotni ta'minlash, kelgusi avlodning ma'naviy barkamolligiga shart-sharoitlarni vujudga keltirish – insoniyatning o'z ajdodlari bosib o'tgan tarixiy yo'liga xolis munosabatda bo'lish asosida bugungi hayot va kelajakdagi milliy taraqqiyotning asoslarini mustahkamlab borishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amaliy hayotda tarixga munosabat orqali bugungi ma'naviy taraqqiyotni yuksaltirish, hamda rivojlanishning kelajak asoslarini mustahkamlab borish dolzarb vazifa sifatida kun tartibidan o'rin olmoqda.

Jahondagi ayrim nufuzli ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida turk runologiyasi va uning tarixiy ahamiyati, turk runologiyasining paydo bo'lib rivojlanishidagi tarixiy shart-sharoitlar tadqiqi, O'rxun va Yenisey havzalarida topilgan qadimgi turk yozuvlarining tekstologik mohiyati, turk runik bitiklaridagi etnonimlar va ularning turkiy xalqlar genezisida va etnik transformatsiyalashuv jarayonlaridagi o'rni, toshbitiklardagi hikmatlarni talqin etish bugungi kunda turkiy xalqlar ijtimoiy-tarixiy ongida o'zaro hamjihatlikni ta'minlashda muhim ekanligi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tarixiy tafakkurni yuksaltirish bo'yicha mikro va megamuhitning ta'sir darajasining o'rniga alohida e'tibor berilmoqda. Tarixni talqin etishda tarixiy haqiqatga asoslanib, o'tmish voqealari rivojini ta'minlab kelgan omillarni tahlil etgan holda tadqiqotlar mazmunini boyitish jarayonlarning real mohiyatini ochishda yetakchi omil sifatida qaratilmoqda.

O'zbekistonda tarixiy qadriyatlarga munosabatni rivojlantirgan holda o'zlikni anglab, ajdodlarimiz bosib o'tgan tarixiy bosqichlar

tadqiqi asosida jamiyat a'zolarida vorisiylik tafakkurini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turkiy xalqlarning ma'naviy boyligi namunalarini o'zida mujassam etib kelgan Turk runologiyasining tadqiqi bir tomondan milliy merosning tarixiy ildizlarini ochishga, jarayonlarning muayyan davrdagi rivojini talqin etishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ilk o'rta asrlardagi ajdodlar o'giti va hikmatlarining bugungi va kelajakdagi ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda ham manba sifatida ahamiyatlidir. Shu nuqtai-nazardan "Bugungi ozod va obod ona-Vatanda mustaqillik ma'naviyatni kundalik hayotimiz mazmuniga aylantirdi. Sobiq sho'rolar tuzumi davrida sharqona odob-axloq, milliy va ma'naviy qadriyatlar unutilar darajaga kelib qolgan edi. Istiqlof tufayli har bir o'zbekning o'zligini anglash va o'z xalqining kelib chiqishining tarixiy ildizlarini bilishga qiziqishi kuchaydi"¹. Bunday qiziqishlar tabiiy ravishda obyektiv tarixni yaratishni kun tartibiga qo'yib, turkiy xalqlar tarixining boshlang'ich bo'g'inlaridan biri bo'lgan qadimgi turk bitigida ifodalangan tarixiy voqealar talqinini taqozo etmoqda. "Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi etnik tarixini, jumladan, etnogenezi o'rganish shu kunning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Bu borada tadqiqotchi olimlar talaygina ishlar qilgan bo'lsalar ham mazkur muammoga oid yana bir qancha masalalar hanuzgacha o'z yechimini topgan emas"². Bunday vazifalar ko'lami tabiiy ravishda obyektiv tarixni yaratishni kun tartibiga qo'yib, turkiy xalqlar etnik tarixining boshlang'ich bo'g'inlaridan biri bo'lgan qadimgi turk bitigida ifodalangan tarixiy voqealar talqinini taqozo etmoqdaki, ushbu masalalar majmui turk runologiyasiga asoslangan bitiklarda tarixiy davr voqea-hodisalari in'ikosini tadqiq etishni ham o'z ichiga oladi.

¹ Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: О'zbekiston, 2015. – Б. 3.

² Шониев К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шафқ, 2001. – Б. 7.

I BOB. TARIXIY JARAYONLARDA TURK RUNOLOGIYASINING TAKOMILLASHUVIDAGI SHART- SHAROITLAR TADQIQI

1.1. O'tmish voqeligini aks ettirishda tarixning o'rni: turk runologiyasi kontekstida

Insoniyat mavjud ekan o'zining shakllanish jarayonlari va bu jarayonda inson sifatida tadrijiy takomil bosqichlarini, ushbu bosqichlarni vujudga keltirgan etnomadaniy va ma'naviy intellektual omillarni o'rganishga ehtiyoj sezib, aqlu zakovatini ushbu maqsad sari yo'naltira boradi. Zero, tafakkur doimo o'zining boshlang'ich nuqtasiga intilib, o'tmish merosiga hurmat hissi yuksalib boraveradi. Shu bois, tadqiqotning dastlabki bobi umuminsoniy sivilizatsiyaning rivojini ta'minlab kelgan turkiy xalqlar ajdodlari – qadimgi turklarning ilk yozma manbalari – turk runologiyasining shakllanishi va takomillashuvidagi tarixiy shart-sharoitlar masalalari tadqiqiga bag'ishlanadi.

Umuminsoniy taraqqiyotda muhim o'rin tutuvchi turkiy xalqlar etnomadaniy rivojlanish bosqichlari bevosita moddiy-madaniy obidalar, tarixiy qadriyatlar bilan bir qatorda, ma'naviy boyliklar namunalarini ham qamrab oladi. Moddiy madaniyat namunalari – tarixiy inshoot, obidalar, yodgorliklar, shuningdek, moddiy olamda mavjud bo'lgan real voqelik nazarda tutilsa, ma'naviy madaniyat – tafakkur taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi yozma va og'zaki ijod namunalaridir. Shu bois, ushbu bobda turk runologiyasi kontekstida o'tmish voqealarining aks etishi, bitiklarning tekstologik mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda turk runologiyasining tarixiy ildizlari hamda ushbu toshbitiklarning paydo bo'lishidagi tarixiy shart-sharoitlar tadqiq etiladi. Zero, turk runologiyasining tarixiy tadqiqi ajdodlarimiz bosib o'tgan sharaflari va sinovli yo'lning bir tekisda kechmaganligi, bugungi milliy ma'naviyat va g'oyaviy barkamollik manbasi o'tmish merosiga borib taqalishi – ma'naviy qadriyatlarimizga

mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishimiz bilan bir qatorda, tarixiy-g'oyaviy jihatlarini tadqiq etgan holda turk superetnosi vakillari, xususan, turkiy genetik ildizga ega bo'lgan yoshlar orasida targ'ib qilishni kun tartibiga qo'yadi.

Tarix fanining tadqiqot obyekti sifatida turk runologiyasi tadqiqiga e'tibor qaratar ekanmiz, bevosita o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy va harbiy jarayonlar gavdalanadi. Va bu jihat o'tmish voqealari ibtidosini qadimgi turklarga mansub tarixiy voqealar mohiyati va uning talqinidan boshlashimiz lozimligini taqozo etadi. Zero, inson tafakkurining muhim qismini xotira egallaganligi kabi muayyan mavzuga kirishda muammoning tadrijiy bosqichlariga e'tibor qaratib, uning tarixiy-metodologik asoslarini talqin etish muhim. Ushbu jihat jarayonlar tadrijiy bosqichlarini qamrab oluvchi ta'limotlar manbaiga e'tibor qaratishni talab qiladi. Shu bois, o'tmish voqeligi tarix fanining tadqiqot obyekti ekan, insoniyat o'tmishini ifoda etuvchi bosqichlarga e'tibor qaratishimiz zarur. Turk runologiyasi ham o'tmish voqealari, ya'ni tarixning muayyan davri voqealarini o'zida mujassam etganligi bois, ushbu fan talqiniga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi.

Ma'lumki, tarix fani odam va uni o'rab turgan olamning shakllanib, tadrijiy takomil bosqichlarini o'rganuvchi fan sifatida insoniyat vakillariga o'tmish voqealaridan saboq chiqarib, tarixiy ong va tarixiy xotirani o'yg'otishda muhim o'rin egallab kelmoqda. Har bir tarixiy davr va sharoitda shakllanib, rivojlanib kelgan sivilizatsiyalar tabiiy ravishda tarix fanining o'rganish obyekti sifatida e'tibor qaratishni talab etadi. "Tarix, birinchi navbatda, xalq tarixi birlamchi manbalarga asoslanadi. Xalq tarixining manbalari – moddiy madaniyat va yozma manbalar bo'lib, ulardan olingan ilmiy ma'lumotlar asosida tarix yaratiladi. Tarixiy yozma manbalar, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, lingvistika, toponimika, epigrafika, numizmatika kabi fanlar bilan o'zaro aloqada va uzviy bog'liq bo'lib, ularsiz o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini mukammal o'rganib bo'lmaydi"³.

³ Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. – Б. 7.

Haqiqatan ham milliy tarix arxeologik manbalar, moddiy madaniyat namunalari va yozma manbalarga asoslanadi. Ayniqsa, yozma manbalar muayyan etnosning shakllanish bosqichlari, tarixiy voqealar va ularning pozitiv rivojida harbiy-siyosiy yetakchilarning o'rni, ularning el birligini, yurt yaxlitligini ta'minlash to'g'risidagi faoliyatlari haqida aniq ma'lumotlar beradi.

Miloddan oldin (qadimgi, antik), ilk o'rta asrlar va o'rta asarlardagi tarixiy voqeliklarga e'tibor qaratgudek bo'lsak, ijtimoiy-tarixiy jarayonlar rivoji turkiy omil bilan chambarchas bog'liq ekanligiga guvoh bo'lamiz. "Tarix charxpalagi aylanishda davom etib, bir nuqta, bir manzilga takror-takror duch kelganidek, Markaziy Osiyolik qavmlarning Idil (Volga) daryosini muttasil ravishda kechib o'tib, G'arb tomon siljishgani va Shimoliy Kavkaz – Shimoliy qora dengiz havzalari bo'ylab Sharqiy Yevropa hududlarida o'zlari uchun yangi maskanlar barpo qilishgani tarix sahifalaridan ma'lum. Bu harakat miloddan oldingi ming yillikning o'rtalarida yunon va eron manbalarida skif yoki sak (shak) shaklida tilga olingan Markaziy Osiyolik qavmlar Qora dengizning shimoliy sohillarida paydo bo'lishgani-yu, uning ortidan milodning IV-V asrlarida son-sanoqsiz son otliqlarining Sharqiy Yevropani oshib o'tib, ushbu qit'aning markaziy hududlariga qadam qo'yishganida yana bir bor o'z tasdig'ini topdi"⁴. Shu bois, "yengilmas" "bahodir" kabi sifatlovchi belgilar "turk" atamasi bilan sinonim tarzda bir xil qo'llanila boshlaganligini ko'ramiz.

Turklarga nisbatan voqelikdagi bunday munosabat tarixiy davrlarning ma'naviy darg'alari, jumladan, ruhoniylar yetakchilar e'tiborini ham torta boshlaydi. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariy turk atamasini diniy omillar bilan bog'lagan holda: "Turk – Tangri yarlagagur, Nuh o'g'lining oti. Bu ot Nuhning o'g'li turk avlodlariga

⁴ Ибн-Абул-Фатх. Туг'абу – хакон. – Тошкент: Abu Matbuot-Konsalt, 2011. – Б. 14 – 15.